Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317148

2. Temur tuzuklari. Toshkent. 1991
3. Smit.A Xalqlar boyligi, tabiati va sabablari. Moskva. 1967
4. Boden.J Davlat haqida. Moskva. 2021

AMIR TEMUR TUZUKLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY ADOLAT TAMOYILLARI

Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich
TDIU Andijon fakulteti
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasi dotsenti
ataxanov1966@gmail.com
Abduqayumov Jaloliddin
“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Mavzuning dolzarbligi: Shu yilning aprel oyida buyuk sarkarda, Temur va Temuriylar davri davlatining asoschisi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 688 yilligini nishonlanadi. Olimlarimizning xisoblashlaricha, qadimdan to hozirgacha Turon zamindan dunè fani, madaniyati va ravnaqiga o‘zlarining buyuk xissalarini qo‘shgan ikki mingdan zièd buyuk allomalar etishib chiqqan ekan. Qizig‘i shundaki, dunèning hech bir zaminida bu qadar ko‘p allomalar etishib chiqmagan ekan. Vatandoshimiz Amir Temur ham shu ona zaminda tug‘ilib, ulkan davlatga asos solgan buyuk tarixiy shaxslardan biridir. Temur nafaqat Vatanimiz tarixida, balki jahon tarixida o‘zining yirik markazlashgan davlatini barpo etib, ijtimoiy adolatli siyosati bilan jahon madaniyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan noèb qobiliyat va ajoyib iste'dod hislatlariga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi.

Alohida ta'kidlab o‘tish joizki, Temurning muvaffaqiyatlari, ulkan va o‘ziga xos davlatchilik asoslarini barpo etishi, uning tarkibiga yigirma sakkiz davlatni birlashtirishi o‘rta asrlar sharoitida misli ko‘rilmagan darajadagi muvaffaqiyat edi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: xo‘sh, Temurning ana shunday yirik mustahkam markazlashgan davlatni tuza olishiga nima sabab bo‘ldi? Bu tasodifmi, harbiy diktaturami yoki omadmi...? Temur tuzgan adolatli, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy jihatdan rivojlangan davlatini barpo etilishining sirlari nimada edi...?

Mavzuga oid mavjud muammolar: Barchaga ma'lumki, qariyib etti asrdan buyon o‘tgan davr ichida Temur va Temuriylar davlati to‘g‘risida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borilib, mazkur ishlar hozirga qadar davom etmoqda. Ushbu tadqiqotlar, o‘sha davrning o‘zidayoq yozilgan tarixiy asarlardan boshlanib, to shu kunlargacha Temur shaxsining turli tomonlarini yoritib berish davom etmoqda. O‘ylaymizki, bu sohada tadqiqotlar hali davom etadi hamda Temur va Temuriylar davrining yanada yangi qirralari ilmiy muomalaga kiritiladi.

Published: 28.03.2024
Cite this article: Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich, Abduqayumov Jaloliddin (2024). Amir Temur tuzuklarida ijtimoiy-iqtisodiy adolat tamoyillari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317148
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, biz quyida Temurning davlat boshqaruviga taalluqli bo‘lgan iqtisodiy siyosatining ayrim jihatlarini tadqiq etishga harakat qilamiz.

Muammoni hal qilish usullari: Bizgacha etib kelgan tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, Temur butun faoliyati davomida ijtimoiy adolat va iqtisodiy siyosat tamoyillarini davlat boshqaruvining asosiy mezoni bo‘lgan tuzuklariga amal qilgan. Ma'lumot o‘rnida qayd etish joizki, Temur tuzuklari davlat boshqaruvining o‘z zamoniga xos bo‘lgan yagona qonun-qoidalar majmui hisoblangan. Temur tuzuklari o‘zining davlatchilik boshqaruvidagi ahamiyatiga ko‘ra bugungi va ertangi kelajagimiz uchun ham o‘rganisha arzigulik noyob manba hisoblanadi.

Tuzuklarda aytilishicha, Temur o‘z haèti davomida besh narsaga qat'iy amal qilganligini èzadi, bular: Olloh, iymon, tufakkur, qilich va kitob. Sohibqiron Amir Temurning ”Kuch – adolatdadir” tamoyiliga qat'iy amal qilganligi ma'lum. Tuzuklarda ijtimoiy adolat tamoyillari shariat qoidalari bilan yo‘g‘rilganiga guvoh bo‘lish mumkin masalan, “Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan ko‘nglimni tortmadim. Yaxshilarga yaxshilik qildim, èmonlarni esa o‘z èmonliklariga topshirdim. Ra'iyat ahvolidan ogoh bo‘ldim” [1. B.94]. Sohibqironning davlatida adolat mezonlariga izchillik bilan rioya qilinganligi uning quyidagi o‘gitlaridan ham bilsa bo‘ladi: “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”[1. B.94]. Temur o‘z avlodlarini o‘ch olmaslikka, har doim tinchlik va yarash yo‘llarini ochib qo‘yishga, qonni qon bilan emas, suv bilan yuvishni o‘rganish lozimligiga chaqiradi. Saltanat ishlarida esa to‘rt narsaga amal qilishni buyuradi;

1) kengash;
2) mashvaratu maslahat;
3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushèrlik;
4) ehtièkorlik.

A.Temur tuzuklarida yozishicha: *“Hokimlar,sipoh va raiyatdan qaysi birininng xalqqa jabr-zulm etkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat, insof yuzasidan chora ko‘rdim, sulton har narsada adolatpesha o‘lsun, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlasin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin, agarda vazir zolim bo‘lsa, ko‘p vaqt o‘tmay saltanat uyi qulaydi” [1. B.90].*

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Xullas, Amir Temur davlatni boshqarish, adolatli ichki va tashqi siyosatni yurgizishda bevosita tuzuklarga amal qilgan. Shuningdek, Temur islom dini, shariat qoidalarini hisobga olgan holda mamalakatdagi barcha aholiga nisbatan bir xil ijtimoiy tenglik tamoyillarini qo‘llaydi. Chunonchi, kambag‘allarni, etimlarni boshini silash ularga yordam berish, zulm qilmaslik kabi insoniylik mezonlariga amal qiladi. Mamlakatni boshqarish bilan birga aholining iqtisodiy masalalari Temur davlatining bosh siyosati hisoblangan.

Bugungi kun iqtisodiy tushuncha va atamalar bilan yoki o‘sha davrning ta'biri bilan aytganda, Temur hamma vaqt aholining ochlik, kambag‘allik, nochorlik kabi turmush darajasidan xabardor bo‘lib turgan. Shu bilan birga Temur aholining o‘zi yurgizaètgan iqtisodiy sièsatdan, moliyaviy munosabatlardan, pul muomalasi va soliq tizimidan xabardor bo‘lishini, ya'ni iqtisodiy savodxon bo‘lishini muntazam talab qilib borgan. Temur aholi iqtisodiy savodxon bo‘lsa, mamlakat iqtisodiy jihatdan ravnaq topadi, deb hisoblardi. Temur o‘z saltanatida katta va kichik shaxarlar axolisidan xech kimga jarima solinmasin, mamlakatga kirgan har qanday karvonlar haqida menga xabardor qilib tursinlar, agarda yolg‘on so‘zlasalar ularning qo‘lini kessinlar yoki qatl etsinlar-deyiladi tuzuklarda [1. B.95]. Bu bilan Temur mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar hamda tovar ayirboshlashdan davlat xazinasi hisobiga tushayotgan soliqlar va muomaladagi pul vositasi aylanishini hisobini olgan.

Shuningdek, Temur o‘z saltanida barcha tabaqadagi fuqarolarga belgilangan miqdorda maosh to‘lanishini tayinlagan. Xatto gadoylarga nisbatan fath etilgan hududlarda ularning kundalik emish-ichishlaridan xabardor bo‘lib, “...ularga biron vazifa tayinlasinlar va tamg‘alasinlar, barcha tamg‘alanganlar toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar shundan keyin ham ham gadolik qilgudek bo‘lsalar uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar, shundagina gado zoti mamlakatimizda yo‘qoladi [1. B.94] – deb amir qilgan. Bilishimizcha, Temur tamg‘alash deyilganda, davlatimizning hozirgi vaqtdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ro‘yxatga kiritish, temir daftar, ayollar daftari, yoshlar daftari kabi chora-tadbirlar belgilangidek, o‘sha davrning o‘ziga xos belgi qo‘yishini nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

Yuqoridagi tuzuklarning mazmun mohiyatidan ko‘rinadiki, Temur avvalo saltanatni iqtisodiy jihatdan ta'minlashga harakat qilgan va barcha aholi qatlamlariga xususan, dehqonlarga hunarmandlarga, chorvadorlarga o‘z tirikchilik manbalarini topish uchun keng imkoniyat bergan. Gadoylarga ham muayyan vazifa yuklatilib, ularni ish bilan band qilgan. Shundan keyin ham gadolik qilganlik uchun esa jazo tayinlagan. Bu o‘rinda Temurning davlat boshqaruv sohasidagi tartib-intizom, aholining barcha qatlamlarini ish bilan ta'minlash kabi bugungi kungi o‘xshash dolzarb vazifalarni bajargan.

Sohibqiron soliqlar xususida quyidagilarni èzadi: «Agar aholi ro‘yxatga olingan erlardan beriladigan soliqni naqd aqcha (pul) bilan to‘lashga rozi bo‘lsa, ularga imtièz berilishi kepak» [1. B.98] deya ta'kidlaydi. By erda gap soliqni naqd pul bilan to‘lovchilar naqd pulsiz ya'ni mahsulot yo‘li bilan to‘lovchilar oldida engilliklar olishi ustida boradi. Bu bilan aholining ehtiyojdan ortiqcha pullarini muomalaga kiritish, hazinani to‘ldirish, bugungi kun ta'rifi bilan aytganda davlat byudjeti daromadlarini ko‘paytirish, iktisodiyotda pul taqchilligini keltirib chikarmaslik, pul emissiyasini tartibga solish, ya'ni pulning qadrsizlanishini oldini olish kabi g‘oyat puxta o‘ylangan iqtisodiy tushuncha yotadi. Shuningdek, Temur soliq islohotiga katta

e'tibor bergan holda, ishlab chikaruvchilarga soliq to‘lashda imtièzlar berganligini ko‘rish mumkin.

Amir Temurning moliya sohasida xususan, soliq masalalari haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, iqtisodchi Adam Smitning «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot» nomli 1776-yilda nashr kilingan kitobida keltirilgan xulosalarda Amir Temyp qarashlari Evropa mamlakatlarida Temurdan bir necha asr keyin takrorlanganligini ko‘ramiz va Evropa davlatlariga nisbatan O‘rta Osiyoda XIV-XV asrlardayoq moliya-byudjet masalalari rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda yana bir ma'lumot, 1577 yilda Ovrupada fransuz tilida J.Bodenning «Davlat haqida» nomli asari nashr qilingan. Temur tuzuklari XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida, ya'ni J.Boden asariga nisbatan tahminan ikki asr oldin shakllangan. J.Boden asarida boshqa masalalari bilan birgalikda moliya masalalari ayniqsa, davlat daromadlari masalalari baèn qilingan edi. Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta hizmatlaridan biri davlat boshqaruv tizimining an'analarini qayta tiklash bilan chegaralanmasdan, zamon talablarini ko‘zda tutib yangi usullari joriy qilishdan iboratdir [2].

Sohibqiron Amir Temur o‘z vorislariga, temuriyzodalarga o‘zining Tuzuklarini meros qilib qoldirdi. Mazkur Temur tuzuklarida saltanatni adolatli boshqarish sirlari asosiy o‘rin egallagan. Ko‘plab tarixiy, ilmiy manbaalarda berilgan tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilib ayta olamizki, temuriyzodalardan Shohrux Mirzo, Ulug‘bek, Husayin Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Umarshayx Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi davridagi davlatchilik ishlarida, o‘rta asr Sharq xalqlari haètida ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilingan va ushbu tamoyil davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur tuzuklari. Toshkent.1991
2. Yo‘ldashev. Q., Muftaydinov. Q. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.2000 y

ANALITIK GEOMETRIYA ELEMENTLARINING VUJUDGA KELISHI VA AHAMIYATI

Kuchkarov M.
TDIU Andijon fakulteti
Ijtimoy-gumanitar fanlar kafedrasi
dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)
Rustamova M.
TDIU Andijon fakulteti
Buxgaltriya hisobi va audit
ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi